



BAHO HODISASINING FANLARARO MUNOSABATI

Sulaymanova Nilufar Jabbarovna

SamDChTI, PhD., dos.

Annotasiya: Maqola tilshunoslikda muloqot ishtirokchilarining dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi, nufuzi, tasvirlanayotgan voqelikning so'zlovchiga bog'liqlik darajasi kabi omillar berilayotgan bahoga o'z ta'sirini o'tkazishiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: baholash, nominativ birlik, integrasiyalashuv, faylasuf, mantiqshunos, ruhshunos, odob-axloq sohasi mutaxasisi, metodologik tamoyil, deduktiv va induktiv tafakkur

Interdisciplinarity of the assessment phenomenon

Sulaymanova Nilufar Jabbarovna

SamSIFL, PhD., assistant professor

Annotation: The article is devoted to the influence of such factors as the worldview, social status, influence of the dialogue participants, the level of dependence of the depicted reality on the speaker in linguistics.

Key words: evaluation, nominative unit, integration, philosopher, logician, psychologist, specialist in ethics, methodological principle, deductive and inductive thinking

Insonning ongli faoliyati voqelikda kechayotgan hodisalarni idrok etish va ulardan imkoni boricha foydalanishga qaratilgan. Ammo bu tarzda faoliyat murakkab jarayon bo'lib, unda bajariladigan harakatlar favqulodda kechmasdan, balki idrok etuvchi shaxs o'z hayotiy tajribasiga asoslangan holda xulosalar chiqaradi va idrok etilayotgan narsa-hodisaga nisbatan munosabat bildiradi. Xuddi





shu munosabat zahirida olamning baholi lisoniy manzrasi shakllanadi. Baholash harakatlari turli nuqtai-nazardan bajarilishi sababli, olam manzarasi turli tasvirga ega bo'lishi mumkin. Lisoniy faoliyatning botiniy xususiyatlarini tahlil qilgan E.K. Kubryakova nominativ birliklar yuzaga kelishida alohida shaxsning tasavvuri, uning ushbu birlikka berayotgan “shaxsiy mazmuni” muhim ekanligini ta'kidlaydi [9, 127]. Ushbu mazmun bevosita baholash harakati mahsuli ekanligini hechkim inkor eta olmasa kerak.

Baholash harakati turli maqsadlarni ko'zlaydi va u ko'pbosqichli faoliyatdir. O'rganilayotgan hodisalarning ko'pjihatlilikiga esa turli fan sohalarining integrasiyalashuvini talab qiladi. Antroposentrik paradigma tinimsiz targ'ib qilinayotgan hozirgi paytda nutqiy tafakkur mahsuli bo'lgan baho hodisasining turli fanlarga xos bo'lgan metodologik tamoyillar nuqtai nazaridan o'rganilishini tabiiy hol, deb hisoblaymiz.

Aytish joizki baho allaqachonlar fanlararo muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Ushbu muammo faylasuf, mantiqshunos, ruhshunos, odob-axloq sohasi mutaxasislari va tilshunoslarning diqqat markazida turibdi. Tadqiqotchilar baho kategoriyasiga taaluqli tushunchalarni tavsiflash, uning tabiatiga xos belgilarni aniqlash, muloqot muhitida bajaradigan vazifalarini tasniflash, berilayotgan bahoning darajasini chegaralash kabi masalalarga oid diqqatga sazovor fikrlarni bayon qilganlar. Lekin ushbu hodisaning mohiyatini ochib berishda uning turli jihatlarining o'zaro munosabatiga tayanish lozimligini ba'zan unutib qo'yadilar.

Insonning voqelikni kuzatish jarayonda namoyon bo'ladigan munosabati va ruhiy harakatlarining mundarijasi turli-tuman bo'lishi aniq. Uning voqelik haqidagi hayotiy tajribasiga asoslangan xulosasi falsafiy bahoni, ushbu voqelikning turli holatlariga bildirayotgan munosabati esa bahoning mantiqiy asosini belgilaydi. Biroq, turli ko'rinishdagi baholarni o'zaro tutashtirib turuvchi markaz nutqiy faoliyatdir.

Falsafada baho insonning baholashga qodir bo'lgan aqliy, hissiy, nazariy fikrlash harakatlari negizida turgan bilish faoliyati natijasi hisoblanadi. “Falsafa”





lug'atida tavsiflanganidek, “bilish-olamning inson ongida in'ikos etishi jarayoni. Inson o'zini qurshab olgan atrof-muhit to'g'risidagi bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan shug'ullana olmaydi” [1, 55]. Falsafa fanida baholash bilish faoliyatini tashkil qiluvchi muhim harakat, deb qaraladi. Bilish faoliyati natijasida shaxsning maqsadi va manfaatlariga mos ravishda voqelikning baholanishi o'z ifodasini topadi. Aksiologiyada qadr-qiymat tushunchasi etakchilik qiladi va shu tushuncha tatbiqida insonning mavjud holatlarga munosabati belgilanadi. Shu asnoda, baholash harakati biron narsaning qadr-qiymati haqidagi fikr, ya'ni bilish ob'ektining shaxs ehtiyojlarini qondirish qobiliyati, istaklari, yo'riqlariga mos kelishi tushuniladi [7, 13].

Haqiqatdan ham baholash harakatini qiymat tushunchasidan ajratib o'rganishning imkoni yo'q. Shu sabab, falsafaga oid tadqiqotlarda ko'proq qiymat va baho tushunchalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi [5, 173-174]. Faylasuflar bilishning mavqeini aniqlashda baho etakchi tushuncha ekanligini qayd etishayotib, gnoseologiya va aksiologiyaning o'zaro aloqasini o'rganish muammoga ko'p jihatdan oydinlik kiritishini ta'kidlaydilar [2].

Voqelikni baholash qanday ko'rinishda voqelanishidan qa'tiy nazar mantiqiy asosga ega bo'lishi kerak. Zero, baholash o'rganilayotgan ob'ektni o'zicha emas, balki shaxsga, uning ehtiyojlari, his-tuyg'usi, didi kabilarga bog'liq holda tavsiflaydi [10, 173]. Sub'ektning ob'ektga munosabati asosida yuzaga kelgan mulohazalar xulosa chiqarishga undaydi. Mantiqshunoslar tavsificha, “Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak” [4, 111]. Bizningcha, deduktiv va induktiv tafakkur amallari tatbiqida erishiladigan xulosalar tarkibidan baholash bilan bog'liq mulohazalar ham o'rin oladi.

Rus olimi A.A. Ivinning ta'biricha, baho mezonlari va ularni nutqda faollashtiruvchi lisoniy tuzilmalar sub'ektiv xarakterga ega bo'lish bilan bir qatorda, u qadar turg'un xarakterga ega emas [8, 33]. Demak, biron bir hodisaga





berilayotgan baho doimiy bo'lib qololmaydi, ijobiy bahoga sazovor bo'lgan ob'ekt ma'lum davrdan so'ng salbiy baholanishi mumkin. Bundan tashqari, so'zlovchi nutq ob'ektiga nisbatan befarq bo'lib qolishi holatlari ham kuzatilib turadi.

Muloqot ishtirokchilarining dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi, nufuzi, tasvirlanayotgan voqelikning so'zlovchiga bog'liqlik darajasi kabi omillar berilayotgan bahoga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, nutq ob'ektiga ruhiy-emosional tavsif berilishi mumkin:

Like everything else in the cabin, Dog's supervisor was ancient and decrepit. Jack was a white – haired relic, with wrinkled leathery skin and bloodshot eyes. He wore false teeth that would roam around inside his mouth whenever he spoke, breaking up his speech and making him sound as if he was drunk. He was dressed in a blue security guard's uniform, almost identical to Dog's, except that Jack's was old and ragged. Should be in a museum, thought Dog, have some lab–rat carbon–date if for posterity. The uniform and the man (Stuart Mclean, Mad Dog).

Mazkur parchada hikoya muallifining baholanuvchi ob'ekt-o'rgatuvchiga nisbatan salbiy munosabati ochiqdan-ochiq ifoda topmoqda.

Nazar Eshonqulning “Momoqo'shiq” qissasidan keltirilayotgan quyidagi parchada ham ayol kishiga berilayotgan bahoning salbiyligi aniq ko'rinib turibdi:

U qarshisida turgan ilohani oddiy bir qishloqi ayolga aylantirayotgan mo'jizaning siri nima ekanligini bilmay bir zum tek qotdi. Shamsi Salohning bu juvon haqidagi barcha go'zal xayollari, orzulariuni tashlab da'fatan qayoqqadir uchib keta boshladi: saldan keyin bu juvon anavi paxta terib yurgan, o'zlarining baxtsizliklarini shallaqilik bilan yashiradigan fahmsiz va farosatsiz, og'zi sassiq ayollardan biriga aylandi, qoldi. Hatto bu narsani nega ilgariroq anglamaganiga hayron bo'ldi. Uning qalbini uyat, nomus tuyg'lari chulg'ab oldi. Qo'shiq aytayotgan juvon qiyofasidagi o'z izlagan qo'shiq ilohasi shu bir necha soniyada ayolni butun tashlab ketgan edi (Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi).

Sub'ektning baho ob'ektiga nisbatan ijobiy munosabatining voqelanishini





“Mehrobdan chayon” romanida Ra'noga berilgan ta'rifda kuzatamiz:

Ammo Ra'noning ismi-jismiga yoxud husniga juda muvofiq tushgan ekan. Men rassom emasman. Agar menda shu san'at bo'lg'anda edi, so'z bilan biljirab o'lturmas, shu o'rinda sizga Ra'noning rasmini tortib ko'rsatar, qo'yar, faqat menga ra'no gulining suvigina ko'proq kerak bo'lar edi.

Solih maxsuli xasis, ta'magir, har holda sajiyasi e'tibori bilan uni yaxshilar qatoriga qo'yib bo'lmaydir. Va lekin tabiat xasis emas, tikandek gul, aridan bol yarata beradilar. Shunga o'xshash tikanlik yog'ochdan xush islik, latif ko'runishlik Ra'no yaratilg'an edi (Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon).

Voqelik tasvirida ijobiy va salbiy munosabat o'zaro hamkorlikda voqelanishi holatlarining yuzaga kelishi ko'proq nutq konteksti bilan bog'liq.

Qiyoslang:

As her eyes wandered from Melanie, she caught the gaze of Rhett Butler, who was not mixing the with the crowd but standing apart talking to John Wilkes. He had been watching her and when she looked at him he laughed outright. Scarlett had an uneasy feeling that this man who was not received was the only one present who knew what lay behind her wild gaiety and found that amusing. She could have clawed him with pleasure (Margaret Mitchel. Gone with the Wind).

Keltirilgan misollardan baholashning turli ko'rinishlarda kechishi ma'lum bo'ladi va buning sababi sub'ektning ob'ektga munosabati keng qamrovli, turli darajada bo'lishidadir.

Umuman, mantiqshunoslar baho kategoriyasi bilan birmuncha jiddiy shug'ullanib, uning turli jihatlarini yoritishga harakat qilganlar.

Adabiyotlar:

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T.: Sharq, 2004. - 496 b.
2. Nazarov K. Bilish nazariyasi. - T.: Universitet, 2005.





3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 300 b.
4. Sharipov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2004. - 214 b.
5. Shermuxamedova N. Gnoseologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. - 320 s.
6. Арутюнова Н.Д. Аксиология в механизмах жизни и языка // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1984. – С. 5-23.
7. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988.
8. Ивин А.А. Основания логики оценок. – М.: Изд-во МГУ, 1970.
9. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути знаний о языке: Части речи с когнитивный точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 500 с.
10. Логический словарь. – М. ДЕФОРТ, 1994. – С. 173-174.

11. Badiiy adabiyotlar

12. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – T.: Ilm–ziyo–zakovat nashriyoti, 2019. – 320 b.
13. Mangham W.S. Rain and other short stories. Moscow: progress, 1977.
14. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. - T.: Sharq, 2008. 400 b.
15. Stuart McLean. Mad Dog // Fusion. – L.: CCWC, 2015. – 239 p.

